



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67
e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat maqomi nazorati mavjudligi kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Biomassazh. 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabaqi 8.0. xeta-los-gammatasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCTIONS» MCHJ bosma-xonasiida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirbod tuman, Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayramta ... Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan narda.

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonart testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir musharakligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Axtulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Shermatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usullar	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - behalo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi - shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'ov Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahorov Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining musharakat jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'qitishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'g'ri lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lik qalbar kuchlisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'yidinov. Sud nutqi lektsiklasidagi o'zlashtirma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalaniishi	70
Dildora Yorbulovala. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Humoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 1691-2689

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining

Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING SHE'RIYATIDA ERK VA BILIM TALQINI

Ma'rifatga da'vat keyingi davr o'zbek adabiyotining bosh mavzusiga aylandi. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotida ifodalangan yangi jamiyat va zamon kishisi, ularning tasviri tahlilini berishda, tarixiy-ijtimoiy voqeelik, ijodkor shaxsi va badiiy tafakkurining asar shakl-mundarijasiga, obrazlarga ta'sirini ham nazarda tutish zarur.

Davrlar inson dunyoqarashiga, shakllangan, o'zgaragan dunyoqarash esa ijtimoiy tuzumlarga ta'sir ko'rsatgani kabi ijtimoiy-siyosiy voqeelik oqimidagi yangilarnishlar badiiy asarlarda ham aks etishi tabiiy hol. XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi adabiyot ma'rifatchilik bo'yog'ining quyulig'i, ruhiy kechimmalardan, qalb evrilishlaridan ko'ra, ijtimoiy mazmuni ko'proq ifodalagani bilan ajralib turadi.

XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan va taraqqiy etgan falsafiy-estetik tafakkur yo'nalishini asosan jadicilik harakati belgilagan edi. XX asrlarda jamiyatda mutaassiblik, jaholat, ilmsizlik, ma'rifatsizlik avj olgan edi. Sho'ro hukumati bor kuch-g'ayrati bilan xalqni, millatni jaholat tomon olg'a boshlardi. Ma'rifat va ilm yo'qularini sochmoqchi bo'lgan bir qator shaxslar xalq, millat dushmaniga aylantirilib, qamoqqa olingan, og'ir azoblarga duchor bo'lgan va qatag'on qilingan edi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy o'z she'rlarida xalq va millat dardini unga yaxshi tanish bo'lgan ohanglarda ifodalashga intildi. Hamza ayollarning erkini butunlay jiboyi baholaydi. Ularning chiqishini eskilikka qarshi dengizning mavj urushi deya ta'kidlab o'tadi. Ammo bu kurashda xinoga yashiringan iboni yo'qolmasligi, balki u ozodlik bayrog'i bilan qorishib ketganligini aytadi. Xotin-qizlarni gulshanning beqiyos guliga o'xshatish bilan birga, ma'rifatdan bahra olishdek baxt bilan qutlaydi.

*Ash'or adiblarining ilhom etar jamoling
Dedi quyosh oyga, "Bizdan bukun yoyling"
Ozodlik chog'ida topqil yana kamoling.
Bersin hayotga sayqal, oynayi jamolin
Topsin tashabbusingdan ishlari baqo muborak.*

Asrlar davomida shoirlar barcha ash'orlarini (ijod namunalarini) sening timsolingga bitadi. Yozuvchi ushbu baytda o'xshatish, ya'ni quyosh timsolida zabardast yigitarni nazarda tutsa, oy timsolida esa munis ayollarni ilgari surib jamiyatning o'sha davrda qo'llab-quvvatlangan, shoirning nazdida mullaqo xato bo'lgan fikrni qo'shtirmoq ichida, kinoya yordamida "Bizdan bukun yoyling" tarzda ifodalayabdi. Endi jamoling butun bir hayotga sayqal bo'lsin deya, ozodligini takror ravishda qutlaydi.

*Noz uyqudan uyg'ongil, ozodsan qafasdan,
Qayrni bu yon xurofat, bid'at, suq - u nafasdan.
Folbin, mozor, duохон, kuchuk, tumor alasadan,
Behuda u yasanlar, jangir-jungur havasdan
Turmushda xo'p kurarsen, nash'u namo muborak.*

Shoir, dramaturg, kompozitor, rejissyor, jurnalist, pedagog sifatida faoliyat ko'rsatgan Hamza Hakimzoda Niyoziyning ko'p qirrali ijodida "Milliy ashuvlalar uchun milliy she'rlar" i alohida mavqegaga ega. Bu majmua 1915-1917 yillarda yaratilgan bo'lib, yetti to'plamdan iborat: "Atir gul", "Oq gul", "Qizil gul", "Pushti gul", "Sariq gul", "Yashil gul" va "Safar gul". Hamzaning ushbu to'plamlarni yaratishdan asl maqsadi milliy ashulalar kuylarining xalq yodida saqlanishiga erishish, millatning orzu-ammonalari ifodalash orqali uning ijtimoiy-siyosiy ongini o'stirish, ilm-ma'rifat targ'ibi vositasida millatni uyg'otish edi.

Hamza o'z ijodida xotin-qizlarni ma'rifati bo'lishga chaqiradi. "O'zbek xotin-qizlari" she'rida ayollarni alqissalab o'tadi.

*"Keldi ochilur chog'i,
Keldi ochilur chog'i, o'zliging namoyon qil,
Parchlab kishanlarni, har tomon parishon qil.
Maktab anjuman borg'il, unda fikr ochib gohi,
Ilm-u fan tig'i birlan jahol bag'ini qon qil"*

Ushbu baytdan ham ma'lumki, shoirning yagona maqsadi xotin-qizlar erksizligiga qarshi kurash, ularni ilm-ma'rifati qilish. Xotin-qizlar ham jamiyatning tom ma'nosidagi kishanlariga qarshi da'vat etadi. Bu kabi mavzularda bosh mezon — ona qilib, olingan.

Xamza o'z asarlarida ayol va qizlar obrazini sezilarni darajada yoritilgan. Va bu orqali nafaqat o'sha davr balki hozirgi zamon uchun ham kerakli bo'lgan asarlar yaratgan desak, xato bo'lmaydi. Shuningdek, o'sha davr ayollarining matonati mohirona ochib berilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hatto biz uchun ham o'rnak bo'la oladi.

Hamza dramalarida xotin-qizlarni ilm-ma'rifat olishi masalasi maishiy mavzularda orqali qalamga olingan. Muallif bir qator obrazlar boyonida xotin-qizlarning ibo, hayo hamda oilaparvarlik xususiyatlariga yuqori baho beradi va bu orqali mukammal turmush uchun ayol ham barkamol bo'lmog'i zarur, degan xulosani yetkazadi.

Milliy uyg'onish davri she'riyatida xotin-qizlar masalasi orqali millatning ilmu ma'rifati, ziyosi, erkinligi va istiqbol mavzusi tarannum etildi. Zero, munis ayol siymosida mujassam bo'lgan fidoyi qalb, mehr-muhabbat, vafo va sadoqat, sabur matonat, shukronalik va insoniylik xislatlari hayotimiz mazmunini tashkil etuvchi asos manbalardir.

Milliy uyg'onish davri adabiyotida millatning ilmu ma'rifati, ziyosi, erkinligi va istiqbol mavzusi xotin-qizlar masalasi orqali tarannum etildi. Zero, Uchinchi Renessansning paydevorini zakovatli, uddaburon, fidoyi, bilimdon onalar o'zlari kabi farzandlar yetishtirish bilan quradilar.